# 2019-yilning yanvar-may oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

**RAQAMLAR:**

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1 trln. 448,4 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi - **100,1 % ni** tashkil etdi;
- Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **39,5 % ni** tashkil etdi;
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi - **46,8 % ni** tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1 trln. 448,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 100,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 1,1 % ga o'sishi hisoblanadi. Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (99,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (95,9 %) va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (91,4 %) pasaydi.

***2019-yilning yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi***



***Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 80,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan chaqiq tosh qariyb 2,0 martaga, tosh ko'mir 0,4 % ga, tabiiy qumlar 9,6 % ga oshdi. Shu bilan birga xom neft (95,8 %) pasaygan.

***Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

| **2018-yil *yanvar-mayida* ishlab chiqarilgan** | **Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari** | **2019-yil *yanvar-mayida* ishlab chiqarilgan** | **O'sish sur'ati, %** |
|---|---|---|---|
| | **Ko'mir, ming t.** | | |
| 69,7 |  | 70,0 | 100,4 |
| | **Neft, ming t.** | | |
| 35,2 |  | 33,7 | 95,8 |

| 2018-yil *yanvar-mayida* ishlab chiqarilgan | Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari | 2019-yil *yanvar-mayida* ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| | **Qattiq tuz (osh tuzidan tashqari), ming t.** | | |
| 4,4 |  | 14,4 | 3,3m ↑ |
| | **Qum, ming t.** | | |
| 14,1 |  | 15,4 | 109,6 ↑ |
| | **Chaqiq tosh, ming t.** | | |
| 13,8 |  | 27,5 | 2,0m ↑ |

## Neft qazib olish, ming.t









***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2019-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 trln. 252,7 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 101,1 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,2 % ni (2018-yil yanvar-may oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,3 % ni (0,2 %), o'rta-quyi texnologiyali - 25,1 % ni (18,9 %) va quyi texnologiyali - 60,9 % ni (61,1 %) tashkil etdi.

## *Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,6 % (2018-yilning yanvar-may oylarida 2,3 %), yog`och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog`oz va qog`oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarishning ulushi – 3,0 % (2,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 31,4 % (30,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 0,4 % (0,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 35,6 % (38,8 %)ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda quyish uchun tayyor beton - 1,5 martaga, osh tuzi 2,4 martaga, un - 8,2 %, suyuq neft - 17,3 %, yirik shoxli qoramollar uchun ozuqalar (ko’p komponentli aralashmalardan tashqari) – 7,3 % ga oshdi.

## *Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish*

| **2018-yil *yanvar-mayida* ishlab chiqarilgan** | **Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari** | **2019-yil *yanvar-mayida* ishlab chiqarilgan** | **O'sish sur'ati, %** |
|---|---|---|---|
| | **Paxta tolasi, ming t.** | | |
| 37,3 |  | 7,1 | 19,0 |
| | **O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.** | | |
| 0,0 |  | 80,9 | - |
| | **Un, ming tn** | | |
| 43,6 |  | 47,2 | 108,2 |
| | **Aroq, ming l.** | | |
| 720,7 |  | 569,6 | 79,0 |
| | **Dizel yoqilg'isi, ming t.** | | |
| 5,3 |  | 4,6 | 87,0 |



### *Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash*

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 89,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,2 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-may oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan – 2,4 martaga oshgani holda, boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi) hajmi (71,7 %) o'tgan yilga nisbatan pasayganligi kuzatildi.

### *Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish*

| 2018-yil *yanvar-mayida* ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019-yil *yanvar-mayida* ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| | **Elektroenergiya, mln.kVt/s** | | |
| 0,0 |  | 1,3 | - ↑ |
| | **Issiqlik energiyasi, ming Gkal** | | |
| 44,4 |  | 31,8 | 71,7 ↓ |

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi - 25,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 48,8 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari – 14,8 % ga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar – 24,5 % ga oshganligi, tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo (ikkilamchi xom ashyo materiallari) (97,2 %), oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar (55,4 %) kamayganligi kuzatildi.

***Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

| 2018-yil *yanvar-mayida* ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019-yil *yanvar-mayida* ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| | ***Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming tonna*** | | |
| 6,3 |  | 6,2 | 97,2 ↓ |
| | ***Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm*** | | |
| 1,7 |  | 0,9 | 55,4 ↓ |

### *Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish*

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo’llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste’mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 572,0 mlrd.so’mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 7,9 % ga o’sishni ta’minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 39,5 % ni tashkil etdi.

**2019-yilning yanvar-may oylarida iste’mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o’sishi sur’ati**




2018-yilning yanvar-may oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 52,1 % dan 2019-yilning yanvar-may oylarida 53,3 % ga oshdi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 47,9 % dan 46,7 % ga pasayganligi kuzatildi.

### *Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 316,1 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 21,8 % ni tashkil etdi.

## *Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %*




### *Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.*

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 21,7 %), Jarqo'rg'on (23,0 %), Denov (13,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### *2019-yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishning o'sishi 2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan %*



Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Denov (iste'mol tovarlari hajmida 23,4 %), Sho'rchi (13,5 %) tumanlari va Termiz shahri (15,0 %) da ishlab chiqarildi.

### *2019-yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha istemol mollarining o'sishi 2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan %*




### *Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 678,3 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 46,8 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy, Boysun (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Termiz (99,2 %) va Uzun (97,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Sherobod (29,0 %), Jarqo'rg'on (33,1 %), Sho'rchi (34,7 %) tumanlari va Termiz shahrida (35,7 %) kuzatildi.

***2019-yilning yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %***




## *Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari*

Bugungi kunda viloyatda 2412 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 520 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,6 %) Termiz shahriga, 262 tasi (10,9 %) Denov tumaniga to'gri kelmoqda.

***Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik***
*(2019-yil 1 iyun holatiga)*




2019-yil yanvar-may oylarida viloyatda 580 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi. Ularning 17,1 foizi Termiz shahri, 13,6 foizi Denov tumaniga to'g'ri keladi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**
Aloqa telefoni: *(76) 223-07-24*